

SHAYX MUSLIHIDDIN SA'DIY SHEROZIY BADIY XAZINASI

Yusupova Odinaxon

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada fors-tojik adabiyoti va badiiy mahorat sohibi Sa'diy Sheroziy hayot yo'li, badiiy ijodiyati haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, uning "Guliston", "Bo'ston" asarlari tahlil qilingan va asarlardagi odob-axloq, insoniylik g'oyalari misollar orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Fors-tojik adabiyoti, Sa'diy Sheroziy hayoti.

O'zbek adabiyotining Sharqdagi ko'pgina adabiyotlar bilan yaqinligi o'zaro munosabatlar tarixida hamisha muhim jarayon sifatida ko'zga tashlanib keldi. 9-10-asrlarda O'rta Osiyo va Eronda mahalliy Somoniylar davlati vujudga kelishi adabiyotga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, ya'ni fors-tojik tilidagi adabiyotlar keng ko'lamda taraqqiy topdi. 9-12-asrlarda fors-tojik tili o'sha davr ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot taqozosiga ko'ra somoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, qoraxoniylar ta'siri ostida bo'lgan keng maydonda katta mavqega ega bo'ldi. Buning natijasida, o'zbek, ozarbayjon, turkman, hind adabiyoti namoyondalari o'z asarlarini shu tilda yaratdilar. Bu tilda ijod qilgan ko'plab shoir-u olimlarni keltirib o'tish mumkin.

Serqirra ijodkor Sa'diy Sheroziy fors-tojik tilida samarali ijod qilgan. Uning ijodi misolida g'azalchilikni mustaqil janr sifatida shakllanib, taraqqiy topganini kuzatamiz. Ayniqsa "Guliston" va "Bo'ston" asarlari Sa'diy Sheroziyni dunyoga mashhur qilgan. U O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlariga bir necha marta sayohat qiladi. Sayohat davomida ko'rgan-kechirgan voqealarini bayon etib, undan ibratli xulosalar chiqaradi. Va bu xulosalar "Guliston" asarida o'z aksini topgan. Bu asar didaktik ruhda, ya'ni pand-nasihat yo'nalishda yozilgan. Asar hikoyalar va she'riy afarizmlar to'plamidir. Hikoyalarining g'oyaviy jihatdan sarmazmunligi, insonparvarligi bilan kitobxonni o'ziga maftun qiladi. Asar nafaqat g'oyaviy jihatdan ahamiyatli, balki uning kompozatsiyasi ham

benuqsondir. Asar muqaddima, 8 bob va xotimadan iborat. Asar tuzilishi haqida shoirning o'zi shunday yozadi: "Kitobni bitirib, boblarga ajratar ekanman, maqsadni muxtasar ravishda ifodalamoqqa alohida e'tibor berishni lozim ko'rdim va kitobxonlar zerikib qolmasligi uchun jannat bog'lariga o'xshab ketadigan ushbu "Guliston"ni sakkiz bobga taqsim qildim:

Birinchi bob - Podshohlar odati bayoni;

Ikkinchi bob - Darveshlar axloqi bayoni;

Uchinchi bob - Qanoatning fazilati bayoni;

To'rtinchi bob - Sukut saqlashning foydalari bayoni;

Beshinchi bob - Ishq va yoshlik bayoni;

Oltinchi bob - Zaiflik va keksalik bayoni;

Yettinchi bob - Tarbiyaning ta'siri bayoni;

Sakkizinchi bob - Suhbat qoidalarini bayoni".[1:19]

Shoir "Guliston" asarini an'anaviy tarzda boshlaydi, ya'ni muqaddimani Allohga hamd, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ga na't, shu davr hukmdorlari Zangining o'g'li Sa'd va Sa'dning o'g'li Abu Bakrlarning ta'rifi bilan boshlaydi.

Birinchi bobda muallif podshohlar haqida fikr yuritarkan, mamlakatni barqarorligini saqlash, siyosiy va iqtisodiy jihatdan yuksaltirish haqidagi qarashlarini bayon qiladi. Hukmdor adolatli, olim va orif bo'lishi kerakligi, doimo fuqarolarining manfaatini o'ylashi kerakligini hikoyatlar orqali tushuntiradi. Yana hukmdorning atrofidagi mulozimlari, vazir-u a'yonlarining mamlakat boshqaruvidagi o'rni qay darajada muhimligini, podshoh o'ziga vazir tanlashda nimalarga e'tibor qaratishi lozimligi haqida ham fikr yuritadi. Zolim va oqil podshohni qiyoslab, zolim podshohga quyidagicha nasihat qiladi:

O'z xalqiga jabr-u zulm ravo ko'rgan podshohning

O'z do'stlari yov bo'ladi qiyin dam kelgan kuni.

Fuqaroga shafqat qilsang , dushmandan omondasan,

Adolatli shahanshohning xalqi- bu o'z qo'shini [1:32].Shuni ta'kidlash joizki , ba'zi o'rinlarda hayvon obrazlariga ham duch kelamiz. Muallif o'z fikrlarini to'g'ridan to'g'ri emas, balki hayvon obrazlari orqali kitobxonga yetkazadi. Masalan , tulki va arslon haqidagi hikoyat.

Ikkinchi bobda darveshlar , obidlar , oriflar , so'fiylar , botiniy va zohiriy dunyo haqida so'z yuritiladi. Sa'diy Sheroziy o'z fikrlarini 47 ta hikoyatga jamlaydi. Hikoyatlarni o'qigan o'quvchi go'zal axloqiy tarbiya oladi desak , mubolag'a bo'lmas, chunki bu hikoyatlarda sabrli bo'lish , Yaratganga isyon qilmay boriga qanoat qilish kabi fazilatlar ulug'langan, munofiqlik qilish , yolg'on so'zlash kabilar esa qoralanib , ularning yomon oqibatlarini hayotiy hikoyalar bilan isbotlangan.

Uchinchi bobda qanoatning fazilati haqida so'z yuritib , quyidagi qit'ani keltiradi:

Davlatmand qilg'il , ey qanoat , meni

Chunki yo'qdir sendan yaxshiroq ne'mat.

Luqmonning murodi - sabr burchagi ,

Sabrsiz kishida bo'lmaydi hikmat [1:93]

Bobning hajmi esa 29 ta hikoyat , masnaviy , qit'a va baytlardan iborat.

To'rtinchi bob sukut saqlashning foydalari bayonidadir. Bu bobda tilni tiyish , sir saqlash , nojo'ya so'zlarni ishlatmaslik kabi axloqiy sifatlar bayoni berilgan. Bu bobdagi bir hikoyat e'tiborimizni tortadi: Sahboni Voilni fasohatda tengi yo'q deb hisoblar edilar, chunki u bir majlisda bir yil davomida so'zlasa ham bir ishlatgan so'zini takrorlamasdi. Bir fikrini ikkinchi marta aytishga majbur bo'lgan taqdirda ham boshqa iboralar bilan ifoda qilardi. Bu saroy a'yonlariga xos sususiyatlaridan biridir.

So'zing garchi dilkash va shirin bo'lur,

Mukofoti tasdiq-u taxsin bo'lur.

Bir aytdingmi , aytma uni o'zga dam,

To'yib bir yedingmi yetar, xolva ham.[1:119]

Bu hikoyat ko'p so'zlagandan kam , lekin salmoqdor va sermazmun so'zlamog afzalligi haqida. Hikoyatdan so'ng go'zal baytlarni keltiradi va shu bois, hikoyatning ahamiyati yuqorilaydi.

Beshinchi bob ishq va yoshlik xususida . Bob Hasan Maymandiy va o'g'li Ayozi haqidagi hikoyatdan boshlanadi. Bu bobda mehr-mehabbat, sadoqat, go'zallik, shirinso'zlik xususida ham fikr yuritiladi.

Muallif oltinchi bobni zaiflik va keksalik bayoniga bag'ishlaydi. Bu bobda , asosan , har bir davr g'animat ekanligi, yoshlikning qadriga yetib , uni behudaga sovurmay, xayirli ishlarga , ilm olishga , ibodat qilishga sarf qilish kerakli nasihat qilinadi.

Sochlarimga oq tushibdur, qayda qoldi bolalik?

Zamon o'tdi, ko'p o'zgardi , zamon- balo nolalik.[3:140]

Ushbu bayt vaqt tezda o'tib ketishi , yoshlikning qadriga yetish kerakligi mazmunida.

Yettinchi bob tarbiya va uning ta'siriga bag'ishlangan. Tarbiya - bola tarbiyasining fani demakdur. Xulqimizning yaxshi bo'lishining asosiy panjasi tarbiyadur.[2:3] Bob mavzusi dolzarbligi va ahamiyatliligi bilan ajrab turadi. Bir olim va uning shahzoda shogirdi haqidagi hikoyat diqqatga molik. Bu hikoyatda olim shahzodaga ta'lim va tarbiya berar ekan , bir qancha qattiqqo'llik ham qilardi. Buni esa go'zal izohlaydi:"Andisha bilan gapirmoq va maqbul harakat qilmoq lozimdir. Bu qoida , asosan , podshohlarga aloqadordir, chunki ularning aytgan gaplari va qilgan ishlari tillarda doston bo'lib ketadi". Hikoyat sermazmun bayt bilan yakunlanadi:

Darvesh agar yuz noma'qul ish qilsa ,

Biriga ham do'stlar qilmas e'tibor.

Ammo podshoh biror hazil so'z desa,

Iqlimdan iqlimga o'tadi takror.[1:145]

So'nggi bob esa suhbat odobi va qoidalar haqida. Bu bobda hikoyatlar emas, ko'proq nasihatlar , aforizmlar keltirilgan.

Asar haqida eronshunos olim Shoislom Shomuhamedov " Bir dasta gul" maqolasida shunday yozadi: " Adabiyotshunoslar nazdida fors-tojik klassik poeziyasining eng porloq asari Firdavsiyning "Shohnoma"si bo'lsa, nasriy asarlarning eng barjastasi "Guliston" hisoblanadi". Haqiqatan, bu asar dunyo tamaddunida o'z o'rniga ega . Sa'diy Sheroziy o'z asarlari bilan Sharq va G'arb adabiyotiga samarali ta'sir o'tkazdi. Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" , Majiddin Xofiyning "Xoriston" , Habib Qoniyning "Parishon" asarlari ham aynan "Guliston"ga ergashib yozilgan. Bundan tashqari asar rus shoiri Aleksandr Pushkinning ham e'tirofiga sazovor bo'lgan: " Sa'diy va Hofiz asarlarining pinhoni asroriga yetgunimcha she'rlarimda quvonchbaxsh jihatlar va hayotdo'stlik kam uchrardi".

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat universiteti talabasi Qarshiyeva Feruzaning "Mulahbub ul-qulub" va "Guliston" asarlaridagi aforizmlarning qiyosiy tahlili" mavzusidagi bitiruv ishida "Mahbub ul-qulub" va "Guliston" asarlarida qo'llanilgan aforizmlarni o'rganish jarayonida shuni kuzatish mumkinki, Navoiy haqiqatda Sa'diy ijodidan ta'sirlangan holda bu asarni yaratadi" [3:40] deb yozadi. Navoiydek shoir o'z asarini "Guliston" ta'sirida yozganligi ham uning ahamiyati qay darajada yuqori ekanini ko'rsatadi. Bundan tashqari Navoiy "Devoni Foni" da Sa'diy g'azaliga 22 ta tatabbu' ,uning tavrda 4 ta g'azal yozganligi ham ma'lum.

Shuningdek, "Bo'ston" asari ham adabiyotda muhim ahamiyatga ega. Asar to'la she'r shaklida bitilgan. "Bo'ston" ham "Guliston" kabi boblarga bo'lingan. Boblarda tasvirlangan muammolar nazariy, amaliy va hayotiy misollar orqali yoritib berilgan. Shoir o'z nazariy fikrlarini hayotiy hikoyatlar keltirib ,isbotlaydi. Asarning ba'zi o'rinlari diqqatimizni tortadi:

Aqling bo'lsa qidir mazmun-u ma'no,

Mazmun abad qolur, shakl bebaqo.[5:22] Bayt asarning ikkinchi bobidan, ya'ni " Xayr-u ehson xususida" bobidan olingan. Bu baytda ma'no va mazmunni qidir, agar aqling bo'lsa , deganda shoir bu dunyoning foniyligi , shaklning o'tkinchiligi , ya'ni shakl deganda boylik va mansab tushuniladi, boqiy dunyo uchun qo'limizdagi manasibimiz va boyligimizni saqlamay , muhtojlarga, mazlumlarga berishimiz kerakligi uqtiriladi. Sa'diy Sheroziy dono va faylasuf kishi bo'lgan. Shuning uchun ham bu baytdan faqat boylikni emas, balki ilmimizni , hunarimizni ham boshqalarga o'rgatishimiz kerakligini tushunish mumkin. Zero, bu olamda ilmdan ortiqroq xazina yo'q.

Bu baytlardan so'ng muxtasar va sermazmun bir bola va uning qo'ylari haqidagi hikoyatni keltiradi. Hikoyat mazmuni qilingan ehson, berilgan mehr hech qachon yerda qolmaydi, albatta, buning mukofoti bor degan xulosada.

Bu asar necha asrlardan buyon bashariyat tarixida e'tirof etilib, e'tibor berilib kelinyapti. Bu sababi esa asardagi muammolar va ularning yechimlari ayni paytda ham dolzarbligi va uni o'qigan kitobxon bag'oyat naf olishida desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

"Sa'diyni hayot muallimi deydilar. Chunki shoirning pand-u nasihatlarini, maqol va hikmatga aylanib ketgan chuqur mazmunli fikrlari falsafiy qarashlari hayotiy"[4:4]. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Sa'diy asarlarini va hikmatlarini har birimiz o'qib o'rganishimiz lozim. Chunki ular hayotimizning har jabhasida bizga hayot yo'limizni yorituvchi va to'g'ri yo'lga boshlovchi mayoq vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sa'diy Sheroziy. "Guliston"
2. Abdulla Avloniy " Turkiy guliston yoki axloq"
3. Qarshiyeva Feruza " Mahbub ul -qulub" va "Guliston" asarlaridagi aforizmlarning qiyosiy tahlili" nomli malakaviy bitiruv ishi
4. Abdug'ani Zahadullayev " Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy xazinasini" nomli ilmiy maqolasi
5. Sa'diy Sheroziy . "Bo'ston"